


Harbiy xizmatchilarning salomatligini asrash, ularni davolash va sog'lomlashtirish ishlariga katta e'tibor qaratilib, harbiy gospitallar zamonaviy tibbiy asbob-uskunalar va sharoitlar bilan ta'minlanmoqda. Xususan, Janubi-g'arbiy maxsus harbiy okrug tasarrufidagi Termiz harbiy gospitalida ham keng ko'lamli qurilish ta'mirlash ishlari olib borilmoqda.



Umumiy qiymati qariyb 87,0 mlrd so'm bo'lgan loyiha doirasida uch qavatli majmuaviy bino qurish, rentgen, lor, stomatologiya, yuqumli kasalliklar bo'limlari va shtab binolarini mukammal ta'mirlash, yangi nazorat o'tkazish punkti va oshxona qurilishi hamda muhandislik tarmoqlarini tortish rejalashtirilgan. Hozirda loyiha bo'yicha qurilish ta'mirlash ishlari davom ettirilmoqda.

Viloyat hokimi Ulug'bek Qosimov Termiz harbiy gospitalida bo'lib, qurilish-ta'mirlash ishlarining borishi bilan tanishdi. Loyihalar yuzasidan soha mas'ullari va quruvchilarning taqdimotlarini qabul qildi. Qurilish ishlarini sifatli amalga oshirish, zamonaviy sharoitlar va tibbiy asbob-uskunalar bilan jihozlash, shuningdek, qurilish hududidagi daraxtlarga ziyon yetkazmaslik choralari ko'rish bo'yicha vazifalar belgilab berildi.

[Surxondaryo viloyati hokimligi Matbuot xizmati](#)